

O'ZBEKISTONDA XALQ TA'LIMI TIZIMIDA KADRLAR MASALASI (1991–2001-YILLAR)

Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li
University of Business and Science dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: lutfillomamasaidov2@mail.ru
orcid: 0009-0004-3573-6787
UDK 94,(575.123) 37

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1991–2001-yillarda O'zbekistonda maktab ta'limi tizimida kadrlar masalasining yuzaga kelishi va rivojlanishi jarayonlari yoritilgan bo'lib, dastlabki yillarda respublika umumta'lim maktablarida pedagog kadrlarning yetishmovchiligi va uni yuzaga keltiruvchi omillar, mazkur yillarda hududlar kesimida maktablarni o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlash borasida olib borilgan islohotlar o'rganilgan.

Аннотация: В данной статье освещаются процессы возникновения и развития кадрового вопроса в системе школьного образования Узбекистана в 1991–2001 годах. Рассматриваются нехватка педагогических кадров в общеобразовательных школах республики в первые годы независимости и факторы, вызвавшие её, а также изучены реформы, проведённые в указанный период по обеспечению школ учительскими кадрами в разрезе регионов.

Annotation: This article highlights the processes of the emergence and development of the personnel issue in the school education system of Uzbekistan in 1991–2001. It examines the shortage of teaching staff in general secondary schools of the republic in the early years of independence and the factors that caused it, as well as the reforms carried out during this period to provide schools with qualified teachers across regions.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, maktab ta'limi tizimi, pedagog kadrlar, o'qituvchilar yetishmovchiligi, kadrlar tayyorlash, ta'lim islohotlari, hududiy ta'minot, umumta'lim maktablari.

Ключевые слова: Узбекистан, система школьного образования, педагогические кадры, нехватка учителей, подготовка

кадров, реформы образования, региональное обеспечение, общеобразовательные школы.

Keywords: Uzbekistan, school education system, pedagogical personnel, teacher shortage, personnel training, education reforms, regional provision, general secondary schools.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng ko'plab sohalar qatori ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni kommunistik mafkuraviy tazyiqlardan holi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan zamonaviy tizim sifatida shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish hamda ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida e'tirof etildi.

Mustaqillik yillarida maktablar faoliyatini yaxshilash va ularda rivojlanish ko'rsatkichlarini oshirishdan ko'zlangan maqsad, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli kitobida Sovet hokimiyatining so'nggi yillarga kelib, ta'lim sohasi va boshqa sohalar qatori ancha yomonlashgan, ya'ni 1990-yilda respublikada ilm-fan va ta'lim sohasining moddiy-texnik bazasi, kadrlar tarkibi achinarli ahvolga tushib qolgan edi"[1.22].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). O'zbekistonda xalq ta'limi tizimining

rivojlanishi bo'yicha bugungi kunga qadar ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Bulardan:

Yo'ldoshev J. "Ta'limimiz istiqboli yo'lida" nomli kitobida mustaqillikning dastlabki yillarida ta'limning sohalari qatori maktab ta'limida amalga oshirilgan islohotlar haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan.

Qurbonov M. "Ezgu g'oyalar ro'yobi" nomli kitobida O'zbekiston mustaqillikka erishganidan to 2000-yillargacha bo'lgan davridagi maktab ta'limi sohasidagi olib borilgan islohotlar, ta'lim sohasidagi zamonaviy me'yorlarning qabul qilinishi, maktablar moddiy-texnik bazasidagi o'zgarishlar haqida bayon qilingan.

Bevosita tadqiqot mavzusiga aloqador hisoblangan T.Xatamovning "O'zbekiston umumta'lim maktablari ta'lim islohotlari tizimida: muammolar yechimi va istiqboli (1991–2009-yy.)" mavzusidagi dissertatsiyasida respublika umumta'lim maktablari tizimida dastlabki yillarda olib borilgan islohotlar, maktab ta'limi sohasidagi chet davlatlar hamkorlik aloqalari hamda dastlabki yillarda maktab ta'limi sohasidagi moddiy-texnik bazasidagi kamchiliklar haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa, tadqiqotda dastlabki yillarda hududlar nuqtai nazaridan mavjud kamchiliklar to'laqonli yoritilmagan.

Shuningdek, ilmiy tadqiqot mavzusiga yaqin tadqiqotlardan yana biri xalq ta'limi sohasidagi tadqiqotlarga bag'ishlangan tadqiqotlardan yana biri Q.Hoshimovning "Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysi viloyatlarida ta'lim sohasidagi o'zgarishlar" mavzusidagi dissertatsiyasida asosiy obyekt sifatida Farg'ona vodiysi viloyatlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, boshqa hududlarda amalga oshirilgan maktab ta'limi sohasidagi islohotlar to'laqonli yoritilmagan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mustaqillik dastlabki yillarida respublikada ta'lim sifati va samaradorligi oshirishda eng muhim omil darsliklar masalasi bo'lsa, ushbu darslikning maqsad-muddaosini o'quvchilarga tushuntiruvchi malakali mutaxassis pedagoglar hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida ta'lim sohasidagi eng jiddiy muammo sifatli kadrlarning

yetishmasligi edi. Bunga sabablardan 1992–1993 o'quv yilida 18000, 1993–1994 o'quv yilida qariyb 30000 nafar pedagoglar boshqa hududlarga ko'chib ketganligi yoki rusiyzabon o'qituvchilarning boshqa respublikalarga ketib qolishi hollari ham bu borada sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi[2.36].

Sirdaryo viloyatida 1992-yilda o'quvchilar bilimlarini sinovdan o'tkazilgan unga ko'ra fizika fanidan o'tkazilgan tekshiruvda viloyatdagi Yangiyer shahri va Boyovut nohiyasining ayrim maktab o'quvchilari qatnashgan unda 502 nafar o'quvchidan 44 nafari yoki 9 foizi puxta bilimga ega ekanligi aniqlangan bo'lsa-da, 71 foiz o'quvchilar berilgan vazifalarni bajara olmagan. Ona-tili fanidan 4 ta o'tkazilgan tekshiruvlarda o'quvchilarning 64 nafar 6 foizi a'lo, 250 o'quvchi 29 foizi yaxshi, 227 nafari esa 27 foizi topshiriqlardan 2 baho olgan bo'lsa, qatnashgan o'quvchilarning 27 foizi berilgan topshiriqlarni bajara olmagan[3.28].

Yuqoridagi holatga o'xshash natijalar Surxondaryo viloyatida ham ko'rishimiz mumkin. Termiz, Denov, Sho'rchi tumanlarida 748 nafar o'quvchidan yozma ish olinganda o'quvchilarning 162 nafari qoniqarsiz baho olgan bo'lsa, faqatgina 23 nafar o'quvchi a'lo baho olgan. Hamda 11 sinf o'quvchilari matematika faniga oid terminlarga oid tushunchalarga ega emasliklari aniqlangan[4.16]. 1994-yilda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi muassasalariga 30 ming nafardan ko'proq mutaxassislar yetishmasligi aniqlangan bo'lsa, Toshkent shahri va Namangan viloyatlarida kadrlar bilan ta'minlanishi darajasi 87 foizni, Sirdaryo viloyati 88 foizni, Andijon viloyati 90 foizni, Jizzax viloyati esa 91 foizni tashkil etadi. Bu yilda Toshkent shahriga 1500 nafar mutaxassis yetishmagan[5.18]. Ta'lim sifatini yaxshilash va maktablar moddiy-texnik bazasi haqida 1995-yilda Buxoro viloyatida o'rganish ishlari amalga oshirilgan bo'lib, unga ko'ra Buxoro, G'ijduvon tumanlari va Buxoro va Kogon shaharlarida faoliyat yurituvchi o'qituvchilardan "O'qituvchi faoliyatida eng katta qiyinchiliklar tug'diradigan muammolar" mavzusida anketa so'rovlari amalga oshirilgan. Natijalarga ko'ra ishtirok etgan pedagoglarning

87 foizi iqtisodiy qiyinchiliklar, 61 foizi maktablarda ko'rgazmali qurollarning yetishmasligi, 37 foizi darsliklarning taqchilligi haqida anketa savollariga javob bergan[6.16].

Respublika hududlarida chet tili fanlari o'qitish bo'yicha 1996-yilda Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida o'rganish ishlarini amalga oshirilgan. O'rganishlar natijasida Toshkent shahridagi Mirzo Ulug'bek, Yakkasaroy, S. Rahimov, Chilonzor tumanlarida, Sirdaryo viloyatining Guliston shahri va Sayxunobod tumanlarida jiddiy muammolar aniqlangan. Ushbu tumanlarda 174 maktablarda 906 nafar chet-tili mutaxassislari ta'lim bermoqdalar. Bularning orasida 135 nafar talabalar bo'lsa, ularning 121 nafari Toshkentda, 14 nafari Guliston shahri maktablarida ishlagan. Bundan tashqari Toshkent shahridagi maktablardagi chet tili o'qituvchilari 56 foizi o'quv jarayonlarida audio-video materiallaridan qanday foydalanishni bilmaydi, 86 foizi kompyuterlardan, 26 foizi boshqa texnik vositalardan foydalanishni bilmaydilar yoki qiynaladilar, 20 foiz o'qituvchilar esa darslarda og'zaki nutqlari yaxshi emas va 13 foiz o'qituvchilar chet tili so'zlarini talaffuzida qiynaladilar.

Andijon viloyatlarda chet tili o'qituvchilarning yetishmasligi natijasida 282 nafar yoki 30 foizi maktablarda 1.5 stavkadan 2 stavkagacha ishlashga majbur bo'lgan. Hamda 62 nafar yoki 7 foiz o'qituvchi 2 stavkadan ortiqcha yuklamalar berilgan[7.61].

Maktablarda kadrlarning yetishmaslik holatlar Namangan viloyatida ham uchratish mumkin. 1995-yilda Namangan viloyatda 27011 nafar pedagog xodimlar mavjud bo'lib, shulardan 71.2 foiz (19238) oliy ma'lumotli bo'lgan. Ushbu holat 1996-yilda 28337 pedagog xodimlarning 20041 nafari (70.7 foiz) oliy, 1129 nafari to'liqsiz oliy, 6658 nafari o'rta-maxsus, 509 nafari esa umumiy o'rta ma'lumotli o'qituvchilar bo'lgan[8.1]. 2018-yilga kelib, ushbu ko'rsatkich 27889 nafari (84,1 foiz) tashkil etgan[9.1].

Yuqoridagi ma'lumotlar o'zaro tahlil qilinganida, 1996-yildan to 2018-yilgacha bo'lgan davrda oliy ma'lumotli o'qituvchilar soni 14 foiz foizga oshgan, lekin

ushbu ko'rsatkich ushbu davr uchun yetarli darajada bo'lmagan. Bunga aholi sonining yil sayin oshib borishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining kamligi yoki o'qituvchilarning mehnat nafaqasiga chiqishi hamda oliy ma'lumotli erkak o'qituvchilarning ko'p qismi ushbu davrda harbiy yoki Huquqni muhofaza etuvchi organlar o'z ish faoliyatlarini davom ettirishlari, bundan tashqari, maktablarda oylik ish haqining kamligi nuqtai nazardan erkak o'qituvchilarning chet ellarga ishlash uchun ketib qolishlari ham viloyatdagi o'qituvchilar sonini oshmasligiga sabab bo'lgan. Sodda qilib aytganda, o'quvchilar soniga nisbatan o'qituvchilar soni yetarli bo'lmagan.

1997-yilda O'zbekistonda ta'lim sohasida o'ziga xos islohotlar amalga oshirilib, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda uning asosi hisoblangan "Kadrlar tayyorlash milliy davlat dasturi" qabul qilingan.

Masalan, umumta'lim maktablariga 6 yoshli bolalarning qabul qilinishi, 9-sinf bitiruvchilarining to'liq o'qishlarini davom ettirishi munosabati bilan Andijon viloyatida turli fanlardan 1034 nafar kadrlar yetishmovchiligi ko'zga tashlanadi. Bunga sabab, Andijon viloyatining Shahrixon tumanida 1997–1998-o'quv yilida – 259 nafar, Qorasuv shahridan – 14 nafar, Paxtaobod tumanidan esa 41 nafar o'qituvchilar o'z xohishiga ko'ra ishdan bo'shaganligidir. Vaziyatni o'nglash maqsadida viloyat xalq ta'lim boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashlar ham o'z samarasini bermagan[10.38].

Namangan viloyati bo'yicha bu o'quv yilida 1695 nafar pedagog o'qituvchiga ehtiyoj sezilgan. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limga (1020 ta), chet tillariga (139 ta), o'zbek tili va adabiyotiga (96 ta), matematika (84 ta), tarix va huquq fanlariga (74 ta), kimyo (59 ta), jami viloyat bo'yicha 1472 kadrlar zarurati mavjud bo'lgan. Kadrlar yetishmovchiligi, ayniqsa, Namangan shahri, Mingbuloq, To'raqo'rg'on va Yangiqo'rg'on tumanlarida yuqori bo'lgan[11.3-4].

Kadrlar yetishmovchiligi 1998–1999-o'quv yilida Navoiy viloyatida ham ko'zga tashlanib,

jismoniy tarbiya fanidan 845 nafar, chet tilidan 561 nafar, mehnat ta'limidan 413 nafar, kimyodan 294 nafar, fizikadan 121, umumiy hisobda 1119 nafar o'qituvchiga viloyatda ehtiyoj sezilgan[12.85]. Respublika maktablarida bir stavka asosida o'qituvchilar bilan ta'minlanishi darajasi 88.7 foizni tashkil etgan[13.64].

Kadrlar yetishmovchiligi masalasi ko'plab hududlar qatorida Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida ham yuqori darajada bo'lgan.

Masalan, 1996-1997-yillarda Buxoroda ta'lim muassasalariga malakali 1.9 ming nafar mutaxassislar yetishmagan. Ayniqsa Buxoro, Kogon shaharlarida, Jondor, Peshku, Qorovulbozor va boshqa cho'l zonalarida maktablarda kadr tanqisligi yuzaga kelgan. Mutaxassisliklar kesimida esa chet tili 71.2 foiz, Jismoniy tarbiya fanlaridan 53.9 foiz o'qituvchilar yetishmagan. Buning natijasida viloyatda mazkur yillarda 200 dan ziyod maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan mutaxassislar ishlagan[14.11]. 1997-yil Qashqadaryo viloyatida esa matematika fanidan 211 nafar fizika fanidan esa 135 nafar pedagoglar yetishmagan[15.123].

Shuningdek, Surxondaryo viloyatida 1998-1999-o'quv yilida 334 nafar chet tili, 205 nafar boshlang'ich ta'lim, 142 nafar o'zbek tili, 130 nafar matematika, 110 nafar kimyo, 76 nafar fizika, 90 nafar tarix fani o'qituvchilari yetishmagan. Umumta'lim maktablarining kompyuter bilan ta'minlanganlik darajasi qoniqarsiz ahvolda bo'lib, 24.5 foizni tashkil etadi. Maktablardagi mavjud kompyuterlarning 334 tasi ishlaydi.

Viloyatda darsliklar bilan ta'minlanish darajasi ham yaxshi holatda emas. Masalan, Termiz shahri, Jarqo'rg'on, Sho'rchi, Denov va Sherobod tumanlarida darsliklar ta'minoti 70-80 foizni tashkil etsa, Boysun, Termiz, Bandixon tumanlarida 55-65 foizni tashkil etadi. Viloyatdagi tojik tilida olib boriladigan maktablarda 43-50 foiz hamda Turkman tilida olib boriladigan maktablarda 39-42 foizlarni tashkil etgan.

Umuman olganda, Respublikada 1998-1999-o'quv yilida umumta'lim maktablari uchun 19241 nafar pedagog kadrlarga ehtiyoj mavjud bo'lgan. 2000-2001-o'quv yiliga kelib,

ushbu talab 14080 nafarga tushdi, Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarining 2000-yilda bitiruvchilaridan umumta'lim maktablariga 13970 nafar yosh pedagoglar kelib qo'shilib, ehtiyoj 99.2 foizga ta'minlangan[16.84].

O'qituvchilar yetishmasligi, ayniqsa, qishloq maktablarida yetishmasligi davom etmoqda. 2006-2007-o'quv yilida maktablarda 1455 nafar chet tillari, 551 nafar matematika o'qituvchisi yetishmadi. Respublika maktablarida oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 141,9 ming (31,4%) o'qituvchi ishlamoqda. Ularning 15,8 ming nafari (3,5%) asosiy fanlar – fizika, matematika, biologiya, kimyo, ona-tili va adabiyot, tarix, davlat va huquq asoslari, chet tillar, geografiya, bo'yicha dars bermoqda[17.17].

Bunga asosiy sabablardan mustaqillikning dastlabki yillarida OTMlari soni 1991-1992-o'quv yilida 54 tani tashkil etib, ularda 337,4 ming talaba tahsil olgan, 2000-2001 o'quv yilida OTMlar 61 taga yetgan va ularda 183.6 ming nafar talaba ta'lim olib, e'tiborlisi 1991-yilga nisbatan 2000-yilga kelib talabalarning OTMga qabul qilinishi 45 foizga kamaygan[18.104].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rinda keltirish kerakki, 1991-2001-yillar haqida so'z borganda respublikada kadrlarning yetishmovchiligi katta qismi qishloq hududlarida joylashgan maktablar to'g'ri kelgan. Ayniqsa tumanlarda aniq va tabiiy fan mutaxassislariga ehtiyoj yuqori bo'lgan. Boshlang'ich ta'limda dars beruvchi o'qituvchilarning katta qismi o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan. Sababi, viloyatda va respublikada pedagog tayyorlovchi OTM kamligi va shunga qaramay o'quvchi soniga nisbatan qabul kvotalari ham bo'lgan.

Yuqoridagi statistik ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, dastlabki o'n yillikda OTM qabul qilish jarayonlarida aholi sonining ko'payib borishi va iqtisodiy ishlab chiqarish sektorlari hamda ta'lim (xalq ta'limi tizimi) muassasalari uchun yetarli kadrlarni tayyorlash masalasi e'tibordan chetda qolgan. Ushbu davrlarda esa Respublikada mavjud pedagog kadrlar tayyorlovchi OTM faoliyat olib borgan bo'lsa-da, ular pedagog kadrlarni yetishtirib

chiqarishda qabul kvotalari soni juda oz bo'lgan.

Davlatimiz tomonidan dastlabki yillarda boshlab har qanday iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay yoshlarni qo'llab-quvvatlash ularni barkamol inson sifatida tarbiyalash maqsadida, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv adabiyotlarini zamonaviylashtirish, bilimli o'quvchilarni rag'batlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarish

yo'lida davlat grantlari va dasturlarini joriy etish ishlariga davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

To'g'ri, dastlabki yillarda O'zbekistonda maktab ta'limi sohasida oldingi davrdan qolgan jiddiy kamchiliklar ta'sirida yuzaga kelgan muammolar yillar davomida aniq dasturlar hamda xalqaro tajribalar yordamida bartaraf etildi va maktablar zamonaviy qiyofaga ega bo'ldi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВААННАЯ ЛИТЕРАТУРА /

REFERENCES):

1. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.... – B. 22.
2. Xatamov T. O'zbekistonda ta'lim tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – B. 36.
3. O'zMA. M-26 fond, 1-ro'yxat, 7-ish, 28-varaq.
4. O'zMA. M-26 fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 16-varaq.
5. O'zMA. M-26 fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 18-varaq.
6. O'zMA. M-26 fond, 1-ro'yxat, 394-ish, 16-varaq.
7. O'zMA. M-26 fond, 1-ro'yxat, 529-ish, 61-varaq.
8. NVDA, 645-fond, 1-ro'yxat, 162-ish, 1-varaq.
9. Namangan viloyati xalq ta'limi boshqarmasining 2018-yildagi hisobotlari.... – B. 1.
10. O'zMA, M-26-fond, 1-jild, 748-ish, 38-varaq.
11. NVDA, 645-fond, 1-ro'yxat, 177-ish, 3–4-varaqlar.
12. O'zMA, M-26-fond, 1-jild, 838-ish, 85-varaq.
13. O'zMA, M-26-fond, 1-jild, 840-ish, 64-varaq.
14. O'zMA. M-26 fond, 1-ro'yxat, 662-ish, 11-varaq.
15. O'zMA. M-26 fond, 1-ro'yxat, 662-ish, 123-varaq.
16. O'zMA. M-26 fond, 1-ro'yxat, 915-ish, 84-varaq.
17. XTV joriy arxivi. 1-jild, 961-ish, 17-varaq.
18. O'zbekistonda ta'lim: talab va taklif mutanosibli. UNDP. –Toshkent, 2007-2008. –B. 104.